



“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

2024-yil 24-aprel

**RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA
O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI
VA XORIJIY TIL SIFATIDA
O‘QITISH MASALALARI:
MAHALLIY VA XORIJIY
TAJRIBA**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

Toshkent, O‘zbekiston

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETINING
75 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI**

2024-yil 24-aprel

**RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI
DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH
MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent, O‘zbekiston

**COLLECTION OF
MATERIALS**

from the international scientific and practical conference
**ISSUES OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A
STATE LANGUAGE AND A FOREIGN LANGUAGE IN
THE PERIOD OF DIGITALIZATION: LOCAL AND
FOREIGN EXPERIENCE**

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции
**ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ УЗБЕКСКОГО
ЯЗЫКА КАК ГОСУДАРСТВЕННОГО И
ИНОСТРАННОГО В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ:
ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ**

Ташкент, Узбекистан

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba / –Toshkent. – 2024. – 771 b.

Ushbu to‘plamga 2024-yil 24-aprel kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasidan o‘tkazilgan “Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqola va tezislar mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’ul.

Mas’ul muharrir

Zilola Salisheva

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar

Safo Matchon,

pedagogika fanlari doktori, professor

Yashnarbek Avlakulov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay’ati

Nazokat Jiyanova

Aydin Mo‘minova

Musajan Tadjiboyev

Saida Maksumova

Mohigul Fozilova

Munira Sharipova

Salima Jumayeva

Dilfuza Pulatova

Zamira Usmonova

Shohista Zoitova

Zikiryo Sharipov

Qobilbek Nazarov

Dilmurod Eshonqulov

Umar Choriyev

Solihaposhsho Xudayorova

Farangis Ochildiyeva

Maqolalarni to‘plab, nashrga tayyorlovchi

Shaxlo Yuldasheva

Ushbu to‘plam O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kengashining 2024-yil 4-apreldagi 8-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ANGLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kuldasheva Sanobar Xayotovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti katta o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Toshkent
kuldashevasanobar01@gmail.com

***Annotatsiya.** Maqolada ona tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, til ta’limida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, metodik dasturlarning yaratilishi, anglash ko‘nikmasini multimedia dasturlari orqali rivojlantirish usullari, multimedia imkoniyatlari orqali o‘quvchilarni fanga qiziqtirish haqida fikr yuritilgan. Multimedia vositalari hamda multimedia dasturlari farqlangan. Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan multimedia turlari haqidagi ma’lumotlar ilmiy sharhlanib, asosan, darsning qaysi bosqichlarida tegishli turlaridan samarali foydalanish izohlab berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli yondashuv, multimedia vositalari, giperhavola, chiziqli multimedia, chiziqli bo‘lmagan multimedia, multimedia dasturlari, internet resurslar, jismoniy tashuvchilar.*

***Abstract.** The article discusses modern approaches to teaching the mother tongue, the effective use of multimedia tools in language education, the creation of methodological programs, methods of developing comprehension skills through multimedia software, and the interest of students in science through multimedia opportunities. Multimedia tools and multimedia programs are distinguished. Information about linear and non-linear types of multimedia has been scientifically interpreted, mainly in which stages of the lesson the effective use of the relevant types has been explained.*

***Key words:** digital approach, multimedia tools, hyperlink, linear multimedia, non-linear multimedia, multimedia programs, Internet resources, physical carriers.*

Ta’limda kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanish va uni tatbiq etilishi haqida ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Multimedyaning yaratilishi va rivojlanish jarayoni uning muhim texnik, dasturiy ta’minoti bo‘lgan kompyuterning paydo bo‘lishi va takomillashuvi bilan bog‘liq. Jamiyatimizda innovatsion axborot texnologiyalaridan o‘quv jarayonlarida samarali foydalanish, uni qo‘llashga bo‘lgan talab, unga bo‘lgan qiziqish va e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish dolzarblik kasb etadi. O‘sib kelayotgan yosh avlod, ya’ni o‘quvchi shaxsining nutqi ustida ishlashda yangi axborot manbalari va materiallari bilan ishlash kompetensiyasi o‘z-o‘zicha shakllanib yoki rivojlanib qolmaydi. “... ona tilini o‘qitish metodlarini kommunikativ aspektda nutq o‘stirishga qarata qayta ko‘rib chiqish vaqti allaqachon kelib yetdi”[5:76]. Bu borada ham uzluksiz hamda muntazam, barqaror pedagogik-metodik yondashuvlarning ustuvorligi talab etiladi.


Hozirga zamon o‘quvchisi uchun mobil qurilmalararo (telefon, planshet va boshqa gadjet)lardan foydalanish juda katta kashfiyotgina emas, balki murakkab ham bo‘lmay qoldi. “Ularning ona tili darslarida, kundalik mashg‘ulotlardagi tatbiqi o‘quvchilarning og‘zaki nutq malakasi, yozma nutq malakasi, o‘qish va tushunish hamda tinglab tushunish malakasini rivojlantirishdagi ishtiroki va ijobiy samarasi aksioma darajasiga ko‘tarilishda davom etayotganini”[4:3] dadil aytish mumkin. Endilikda bu texnologiyalarni qo‘llanganidan emas, balki qo‘llanmaganidan ajablanish ko‘proq uchrayotganini e’tirof etish joiz. Ona tili darslarini multimediali tashkil etganda anglash ko‘nikmasini rivojlantirish birmuncha yengil amalga oshadi. Chunki o‘quvchi axborotni ham ko‘rib, ham eshitib qabul qilganda, ma’lumotning xotirada saqlanib qolishi 75-80%ni tashkil etishi mutaxassislar tomonidan aniqlangan. Multimedia texnologiyasining kiritgan yangiligi shundaki, u axborotlarni yetkazishning tegishli usullarini boshqarishga imkon berishi bilangina emas, mana shu axborotlarni tanlashda faol bo‘lish imkonini ham beradi...”[Kamryk, 2014: 184]. Multimedia vositalaridan foydalanishda bir qator imkoniyatlar yuzaga keladi. Bulardan biri ayni paytda yana bir qancha qo‘shimcha ma’lumotlar bilan tanishib chiqish uchun havolalarning mavjudligidir. Jumladan, ayrim giperhavolalar adabiy yoki musiqiy asarni ilk manba bilan, uning turli xildagi ko‘rinishi yoki ijrosi bilan (turli variantdagi tarjimalari bilan) bog‘lash imkonini beradi. Assosiativ giperhavolalar musiqiy, tasviriy san’at va badiiy asarlarni assosiativiyalar, jismoniy tashuvchilar (cd, Dvd, flesh-karta) hamda onlayn-maydon orqali sayt sahifalari yoki turli portallardagi axborotlar bilan bog‘lash orqali foydalana oladi. Bilamizki, ona tili darsliklarida “matn bilan ishlash”, “lug‘at bilan ishlash”ga doir mashq va topshiriqlar ko‘plab kiritilyapti. Bu hodisa o‘qituvchi va o‘quvchilarni lug‘at kitoblari bilan ishlashga majbur etadi. Ayni paytda multimedia vositalarini qo‘llash, foydalanish o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham imkoniyat eshigini ochadi. Darsliklarning multimedia ilovalari yaratilganda, matnda berilgan so‘zning ustidagi tugmachani bosib, elektron lug‘atlar bilan ulanish, so‘zning mazmun-mohiyati mavjud manbalarda qanday ma’no kasb etib kelganligiga guvoh bo‘lish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Matn o‘qilganda yo eshitilganda anglangunga qadar 4 daraja amalga oshadi.

Sh.Abdiraimov o‘qib tushunish jarayonini to‘rt darajaga ajratadi:

1. So‘z darajasidagi ma’lumotni tushunish.
2. Jumla darajasidagi ma’lumotni tushunish.
3. Matn darajasidagi ma’lumotni tushunish.
4. Anglash[1:15].

Bizningcha, grafema, grafik tasvirlar, diagrammalar, chizmalarni o‘qish, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari, ochiq va yashirin ma‘lumotlarni fahmlash, matnning g‘oyasini idrok qilish multimedia vositalarida oson va samarali kechadi. Diagrammalar statik ko‘rinishda berilmaydi. Balki ketma-ketlikda yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab o‘sishi, chizmalarning ekranda har xil rang va hajmlarda paydo bo‘lishi, so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari bilan bog‘liq qo‘shimcha ma‘lumotlarning “jonli” taqdim etilishi, matn g‘oyasi bilan bog‘liq qo‘shimcha axborotlarning ilova qilinishi o‘qib tushunish malakasini shakllantirilishiga ko‘mak beradi. Chizma va diagrammalarni hosil bo‘lishi uning ko‘z o‘ngida sodir etiladi. Bu esa o‘qib tushunishni yengillashtiradi.



1-rasm. Multimedia texnologiyasi

Multimedia dasturlarida baholash. Multimediali majmualarda o‘quvchilar bilimini baholaydigan funksiyalar kiritilishi joiz. O‘quvchilar bilimini baholashda multimediali dasturlar ko‘pgina imkoniyatlarni tug‘diradi. O‘rgatuvchi dasturlarda o‘quvchi to‘g‘ri javobni belgilamaguncha boshqa test ochilmaydigan dasturlarni sozlash mumkin. Bunda o‘quvchi bilimidagi bo‘shliqlar to‘ldiriladi, to‘g‘ri javobni topishda va bilishda majburlik sezadi. Bundan tashqari, adaptiv testlar[2:34] ham maxsus dasturiy ta‘minot asosida tuziladi. Bunda keyingi test topshirig‘i oldingi testning javobiga bog‘liq bo‘ladi. Javob to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, qiyinroq, noto‘g‘ri

javob belgilangan bo‘lsa osonroq darajadagi testlar o‘rin almashib keladi. Adaptiv testlar faqat kompyuter imkoniyatlari asosida amalga oshiriladi. O‘quvchilar bilimni formativ baholashda faqat faol qatnashgan o‘quvchilarni emas, balki barcha o‘quvchining bilimni baholashga erishiladi. O‘qituvchi har bir darsida turli test topshiriqlari, aralash turdagi topshiriqlar, videolavha, audiomatn, animatsiyali filmlar asosidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning nutqiy hamda lingvistik ko‘nikmalarini tekshirib bora oladi. O‘quvchilar bilim darajasiga qarab dars shakliga, mazmuniga o‘zgartirish kiritish g‘oyalari va imkoniyati paydo bo‘ladi. Summativ baholashda ham kompyuterning keng imkoniyatlaridan foydalanish vaqti allaqachon keldi. Sh.Abdiraimov tadqiqotlarida “summativ baholash formati o‘rniga asosan formativ baholash metodikasidan foydalanilayotganligi, baholash jarayonlari loyihalashtirilmaganligini”[1:14] ta’kidlagan. “Summativ baholashda bir xil yozma ish turi yo bir xil turdagi testlardan foydalanish orqali o‘quvchilar bilimi biryoqlama qarashlar orqali baholanib kelingan”[3:80]ligini ko‘pgina metodist va olimlar ta’kidlashmoqda. Bunday baholashda bolada to‘rt ko‘nikmaning qay darajada shakllanganligi mavhumligicha qoladi. Kompyuterlarda summativ baholash loyihalarini yaratish vaqti keldi. Bu loyihalarni yaratishda multimediali dasturlardan unumli foydalanilsa, maqsadga muvofiq.

Multimedia vositalaridan foydalanib baholashning muhim jihatlari quyidagicha:

1. O‘qituvchi sinfdagi 30 (32, 28)ta o‘quvchini bir vaqtda baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

2. O‘quvchiga xato va kamchiliklarini tuzatib, yakuniy dalillangan xulosaga kelish imkoniyatini beradi.

3. O‘quvchi xolis fikrga ega bo‘ladi, norozilik kayfiyati paydo bo‘lmaydi.

O‘qituvchi mehnatining yengillashishi, inson aralashuvining cheklanishi orqali shaffoflikning ta’minlanishi, o‘quvchi “kompyuter – ustoz” qarshisida o‘zini birmuncha dadil tutishi kabi bir nechta obyektiv va subyektiv omillarni ham qo‘shimcha sifatida keltirib o‘tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдираимов Ш. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари. Пед.фан.б. фал. док. ... дис.автореферати – Тошкент, 2022. – 15-б.
2. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o‘lchovlar). – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 34-bet.

3. Окладникова С. Разработка алгоритма контроля и управления соответствия тестовых материалов правилам русского языка. Известия волгоградского государственного технического университета. – Волгоград, 2008. – С.112-115. ISSN: 1990-5297.
4. Резяпова Л. Проблема использования теоритечких знаний в практике студентов высших учреждений во время пандемии. Студенческого форума 2021. – Сочи. <https://scienceforum.ru/2022/article/2018028706>
5. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлакларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 76-б.